



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqib boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 8-may, № 92 (9263)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## AVSTRIYA BILAN KO'P QIRRALI SHERIKLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH MUHIMLIGI TA'KIDLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 7-may kuni Avstriya Respublikasining Yevropa va tashqi ishlar federal vaziri Beate Mayni-Rayzinger va ichki ishlar federal vaziri Gerxard Karnerdan iborat delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmonlar davlatimiz rahbariga Avstriya Federal Prezidenti Aleksandr Van der Bellenning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Turli darajalardagi muloqotlar izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Keyingi yillarda tovar ayirboshlash 3 barobar oshdi. Qurilish materiallari, tog' turizmi, sog'liqni saqlash, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, bank-moliya va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalari jadal amalga oshirilmoqda.

Hukumatlararo komissiya samarali faoliyat yuritmoqda. Ushbu tashrif doirasida qo'shma biznes forumi muvaffaqiyatli o'tkazildi, mehnat migratsiyasi, diplomatik xizmat va soliqqa tortish sohalarida muhim bitimlar imzolandi.

Madaniyat va ta'limda ham almashinuvlar kengayib bormoqda.

Oliy darajada tizimi muloqotni yo'lga qo'yish, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, ustuvor yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni ilgari surish muhimligi ta'kidlandi. Xavfsizlik sohasidagi hamkorlik haqida so'z yuritilgan ekan, terrorizm, odam savdosi, narkotrafik va kibernetika sohasidagi kurashish muhimligi ta'kidlandi. Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## JAMOAT TRANSPORTI HAR TOMONLAMA QULAY VA XAVFSIZ BO'LADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlarda jamoat transportini yanada yaxshilash va bu boradagi ishlarni jadallashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So'nggi yillarda aholiga qulay, xavfsiz va ekologik toza jamoat transporti xizmatini ko'rsatish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oxirgi uch yilda poytaxt va viloyat markazlariga 2 650 ta zamonaviy elektrobus va avtobuslar olib kelindi. Brutto-shartnoma asosida 279 ta muntazam yo'nalish yo'lga qo'yildi.

Natijada har kuni yo'nalish chiqayotgan avtobuslar soni 3 150 taga yetdi. Kunlik qatnovlar soni 2022-yildagi 18 mingtaga 45,2 mingtaga, yo'lovchilarning soni esa 900 ming nafardan 2,3 million nafarga oshdi. Shu orqali 4,8 mingta yangi ish o'rni yaratildi.

Taqdimotda jamoat transportini yanada rivojlantirish bo'yicha navbatdagi vazifalar ko'rib chiqildi. Urbanizatsiya jarayonlari tezlashayotgani, poytaxt va viloyat markazlariga tutash hududlarda aholi harakati keskin ko'paygani sababli shaharlarga kirishda qatnovlar 30 foizga oshgani qayd etildi.

Shu munosabat bilan shahar jamoat transportini yagona aglomeratsiya tizimiga o'tkazish taklif qilindi. Bunda shaharlar atrofidagi 12 kilometrgacha bo'lgan hududlarga qatnaydigan avtobus yo'nalishlari ham brutto-shartnoma tizimi bilan qamrab olinadi.

Jumladan, Toshkent viloyatining Nazarbek, Shifobaxsh suvlar va Uch qahramon hududlarini poytaxt bilan bog'lash orqali avtomobillar oqimini kamida 20 foizga kamaytirish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Umuman, poytaxtda 19 ta, viloyat markazlarida 79 ta shunday yo'nalish tashkil etish rejalashtirilgan.

Poytaxt jamoat transporti va shahar atrofi temir yo'l qatnovlarini o'zaro bog'lash maqsadida "elektropoyezd — avtobus", "elektropoyezd — metro" kabi qulay tariflarni joriy etish taklif qilindi.

Qolaversa, viloyat markazlarida jamoat transporti harakat tarkibini yangilash zarurligi ta'kidlandi. Hisobotlarga ko'ra, hududlarda yana 1,5 mingta katta va o'rta sig'imli avtobuslarga ehtiyoj bor. Shu bois zamonaviy avtobuslar olib kelinishi rag'batlantirish, tadbirkorlar uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish, kredit liniyalarini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar bildirildi. Jumladan, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida avtobuslarni import qilishda utilitatsiya yig'imidan ozod qilish muddatini yana 2 yilga uzaytirish taklif qilindi.

Taqdimotda avtobus haydovchilari uchun munosib va xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda ayrim haydovchilar me'vordan ortiq ishlayotgani xizmat sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani qayd etildi. O'tgan yili poytaxtning o'zida haydovchilarning xatti-harakatlari va muomalasi yuzasidan aholidan 1 670 ta shikoyat kelib tushgan. Avtobuslar ishtirokida 109 ta yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan.

Shu munosabat bilan brutto-shartnoma tizimini takomillashtirish, bir avtobusga to'g'ri keladigan haydovchilar sonini 2 nafardan 3 nafarga oshirish, harakat xavfsizligi va xizmat madaniyatini kuchaytirish vazifasi qo'yildi.

Jamoat transportida bajarilgan ish hajmi va sifatini baholash uchun har bir viloyatda dispatcherlik markazlari tashkil etilgan. Buning natijasida harakat jadvaliga muvofiq bajarilayotgan qatnovlar ulushi 90 foizga yetdi.

Endi ushbu tizimlarga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali yo'lovchilar oqimiga mos ravishda avtobuslar harakatini tashkil qilish taklif etilmoqda. Bu bir yo'lovchini tashish tannaxrini 10 — 15 foizga qisqartirish imkonini beradi.

Davlatimiz rahbari jamoat transportini rivojlantirishda aholi soni ko'p shaharlar bilan birga turizm markazlarini ham qamrab olish zarurligini ta'kidladi.

Samarqand va Namanganni aholisi bir millionlik shaharlarga aylantirish bo'yicha belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, mazkur hududlarda aholi va sayyohlar uchun zamonaviy "yashil transport" yo'nalishlarini ko'paytirish bo'yicha aniq master-rejalarni ishlab chiqish topshirildi.

Oxirgi yillarda Xiva shahriga turistlar oqimi 3 karra ko'paygani, bu esa qulay jamoat transportiga ehtiyojni keskin oshirgani qayd etildi. Shu bois Xiva, Shahrisabz, Marg'ilon, Qo'qon kabi yirik turizm maskanlarida ham jamoat transportini rivojlantirish dasturini boshlash zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Prezidentimiz jamoat transporti aholi kundalik hayoti sifatini, shaharlardagi harakat madaniyatini, ekologiya va iqtisodiy faollik bilan bevosita bog'liq muhim soha ekanini ta'kidlab, mutasaddilarga transport xizmatlari qulayligi va xavfsizligini maqsadida avtobuslarni import qilishda utilitatsiya yig'imidan ozod qilish muddatini yana 2 yilga uzaytirish taklif qilindi.

Taqdimotda avtobus haydovchilari uchun munosib va xavfsiz mehnat

O'ZA.

## MUDOFAA SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH VA RAQAMLASHTIRISH YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQULADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va armiyani raqamlashtirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

So'nggi yillarda dunyoda yuz berayotgan qurolli mojaralarda uchuvchisiz uchadigan apparatlar, robotlashgan tizimlar, radioelektron kurash vositalari va zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa nafaqat qurol-yarog' va harbiy texnikalarni yangilash, balki yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashni ham taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda mazkur yo'nalishda izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Qo'shinlarda dronlarni jangovar qo'llash va ularga qarshi kurashuvchi yangi bo'linmalar tashkil etilib, uchuvchisiz uchadigan apparatlar operatorlari, muhandislar va robototexnika mutaxassislarini tayyorlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Taqdimotda davlatimiz rahbariga mazkur mobil bo'linmalar faoliyati hamda ushbu yo'nalishda mutaxassislar tayyorlash tizimi yuzasidan hisobot berildi.

Harbiy ta'lim tizimini isloh qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. 2025-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur sohani rivojlantirish, zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga

ega harbiy kadrlarni tayyorlash choralari ko'ribildi. Natijada barcha oliy harbiy ta'lim muassasalariga institut maqomi berilib, yagona vertikal boshqaruv tizimi yaratildi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti tashkil etildi.

Zamonaviy jangovar harakatlar, qo'shinlardagi real ehtiyoj va ilg'or oliy ta'lim muassasalarida tajribasi asosida yangi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari joriy etilmoqda. Tayyorgarlik nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish tamoyili asosida tashkil etilib, bo'lajak ofitserlar o'quv jarayonining o'zida dolzarb vaziyatdan kelib chiqib xizmat o'tashlari uchun zarur ko'nikmalarni egallashi ko'zda tutilgan.

Bakalavr darajasida harbiy kadrlar tayyorlashning mutlaqo yangi modeli doirasida kursantlarga xorijiy tillar, axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt chuqur o'rgatildi.

Qo'mondonlik-shtab ofitserlari uchun ilg'or xorijiy tajriba va zamonaviy qurolli to'qnashuvlarni o'rganish asosida ilk bor uch bosqichli yangi o'qitish tizimi joriy etildi.

Shu bilan birga, serjantlar tarkibini tayyorlash ko'lami ham kengaytiriladi. Asosiy yangiliklardan biri — oliy harbiy ta'lim muassasalarida serjantlar uchun bakalavriatning oltita fuqarolik mutaxassislari bo'yicha masofaviy ta'lim yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, aviatsiya va uchuvchisiz uchadigan apparatlar mutaxassislarini tayyorlash tizimi yanada takomillashtirilib, mazkur yo'nalishda Qurolli Kuchlar harbiy yig'machilari o'qitish va ularga xizmat sertifikat berish tartibi joriy etildi.

Taqdimotda armiyani raqamlashtirish va kibernetika sohasidagi muammolarni ham ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda Mudofaa vazirligi tizimida aloqa infratuzilmasi modernizatsiya qilindi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilmoqda, himoyalangan ma'lumot almashinuvi kanallari rivojlantirilmoqda.

Harbiy dasturchilar tomonidan qo'shinlar faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha 50 ga yaqin axborot tizimlari ishlab chiqildi. Xususan, mudofaa ishlari

organlarida "Chaquiruv" elektron axborot tizimi yaratilib, 19 ta vazirlik va idoralar bilan integratsiya qilindi. Bu 39 turdagi ma'lumotnomani onlayn shaklda olish va ilk bor chaquiruv tadbirlarini to'liq elektron shaklda o'tkazish imkonini berdi.

Harbiy tibbiyot sohasida yagona tibbiy axborot tizimi va telemeditsina joriy etilib, Sog'liqni saqlash vazirligining "D-MED" tizimi bilan integratsiya ta'minlandi.

Zamonaviy xavf va tahdidlardan kelib chiqib, Mudofaa vazirligida kibernetika sohasidagi muammolarni o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan Axborot xavfsizligi monitoring markazi tashkil etildi.

Taqdimotda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini yanada rivojlantirish, robotlashgan va avtonom majmualardan foydalanishni kengaytirish, shuningdek, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar taklif etildi.

Mudofaa vazirligi markaziy apparatida Raqamli texnologiyalar bosh boshqarmasi, Sun'iy intellekt texnologiyalari departamenti va Kiberxavfsizlik laboratoriyasini

tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Respublikaning barcha hududlarida uzluksiz va barqaror aloqani ta'minlash maqsadida Sun'iy yo'ldosh aloqa markazi faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Mudofaa sohasida yagona raqamli siyosatni yuritish maqsadida mudofaa vazirligining raqamlashtirish, sun'iy intellekt va kibernetika sohasidagi muammolarni o'rinbosari lavozimi joriy etildi. Harbiy okruglarda esa qo'mondonlarning raqamlashtirish, sun'iy intellekt va kibernetika sohasidagi muammolarni o'rinbosarlari lavozimlarini joriy etish nazarda tutilmoqda.

Taqdimot yakunida Oliy Bosh Qo'mondon bildirilgan takliflarni ma'quullab, armiyani yanada raqamlashtirish, qo'shinlarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan hujjatlarni imzoladi.

Mutasaddilardir o'ldiga mudofaa sohasini to'liq raqamlashtirish, milliy sun'iy intellekt modellarini yaratish va malakali harbiy kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar qo'yildi.

## BO'LAJAK SHARQSHUNOSLAR BILAN SAMIMIY MULOQOT

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti talabalarini, yosh tadqiqotchilarni, "Sharqshunos tahlilchilar" va "Yosh sharqshunos diplomatlari klubi" a'zolari hamda professor-o'qituvchilari bilan ochiq va samimiy muloqot o'tkazdi.

### Uchrashuv

Payshanba — Yoshlar kuni doirasida tashkil etilgan ushbu uchrashuvda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, parlament diplomatiyasi, yoshlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki, Yangi O'zbekistonda barpo etishdagi o'rni va yosh kadrlarni tayyorlash masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuvda Senat huzuridagi Yoshlar

parlamenti faoliyati, yigit-qizlarni qonun ijodkorligi jarayoniga keng jalb etish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va siyosiy faolligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ham ma'lumot berildi.

Senat Raisi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mamlakatimiz uchun xalqaro munosabatlari sohasi mutaxassislari va sharqshunos olimlarni tayyorlaydigan yetuk ta'lim maskaniga

aylanganini alohida ta'kidlab o'tdi.

— Bugun sizlarning timsolingizda nafaqat kelajak diplomatlari yoki tarjimonlarini, balki mamlakat taqdiriga daxldor qarorlar qabul qiladigan, O'zbekiston manfaatlarini xalqaro maydonda munosib himoya qila oladigan intellektual salohiyatli yoshlarni ko'ramiz, — dedi T. Norboyeva.

Muloqot jonli savol-javoblarga boy tarzda o'tdi. Talabalar tashqi siyosat, diplomatik faoliyat, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik, yoshlarni davlat xizmatiga tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar va xorijiy tajribalarni o'rganishga oid o'z fikr hamda takliflarini bildirdi.

"Xalq so'zi".

## DEPUTATLAR QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRMOQDA

### Ochiq parlament

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlar O'zbekiston

texnik jihatdan tartibga solish agentligida bo'lib, uning faoliyati, sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, qonun loyihalari qabul qilinganidan keyin ularning ijrosini ta'minlash bo'yicha rejalashtirilgan ishlar bilan tanishdi.

Uchrashuv doirasida "Texnik jihatdan tartibga solish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalarida olib borilayotgan islohotlar: amaliy natija va dolzarb takliflar" mavzuida seminar o'tkazildi.

Qayd etish joizki, agentlik tomonidan ishlab chiqilgan va hukumat tomonidan quy palataga kiritilgan qator hujjatlar ayni vaqtda ikkinchi o'qishga tayyorlanmoqda.



Nigoh

## KELAJAKKA BO'Y CHO'ZGAN O'TMISH MEROSI

Davlatimiz rahbarining ma'naviy merosga tayangan holda yuritayotgan ochiqlik siyosati va qat'iyati taraqqiyot sari odimlayotgan Yangi O'zbekiston qiyofasini belgilab bermoqda

"Tinchlik har qanday boylikdan ustun", degan hikmat barcha davr va madaniyatlar uchun birdek ahamiyatli haqiqat. Zero, tinchlik hukm surgan joyda yaratuvchanlik, hamjihatlik va taraqqiyot uchun mustahkam zamin vujudga keladi. Aksincha, osoyishtalik yo'q joyda erishilgan eng katta yutuqlar ham o'z qadri ni yo'qotadi.

Bugun Yangi O'zbekistonda tinchlikparvarlik davlat siyosatining ustuvor tamoyiliga aylandi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar natijasida mamlakatimiz atrofida o'zaro ishonch va manfaatli hamkorlik muhiti

shakllanmoqda. Qo'shni davlatlar, an'anaviy sheriklar va yangi bozorlar bilan aloqalar izchil mustahkamlanib, aniq manfaat va umumiy maqsadlarga asoslangan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilmoqda.



Oliy Majlis Senatida

PENSIYA TAYINLASH SODDALASHADI



Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi majlisida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga pensiya tayinlash tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi Qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.

Qonun bilan fuqarolarga nisbatan nogironlik belgilanganda ulardan murojaat talab etilmagan holda (proaktiv shaklda) pensiya tayinlanishi, nogironlik pensiyasi tayinlanganidan keyin fuqaro kamida bir

yl ish stajiga ega bo'lganda tayinlanadigan pensiya miqdori har ikki yilda bir marotaba fuqarodan murojaat talab etilmagan holda (proaktiv shaklda) qayta hisoblanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, chegirmalar qilinganidan keyin to'lanadigan pensiya miqdori rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emasligini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritilmoqda.

Senatorlar ushbu o'zgartirishlar fuqarolarga nogironlik pensiyasini tayinlash tartibini soddalashtirishga va ularga ushbu sohada ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Muhokama yakunida Qonunni navbatdagi yalpi majlis kun tartibiga kiritish yuzasidan qo'mita qarori qabul qilindi.

Xalq diplomatiyasini kengaytirishga qaratilgan memorandum

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi hamda O'zbekistondagi Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi o'rtasida hamkorlik to'g'risida memorandum imzolandi.

Cenatorlar yoshlar huzurida

O'zbekiston Ekologik partiyasi Toshkent shahar Kengashi hamda Ekoharakat faollari hamkorligida Fan va texnologiyalar universitetida Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi Anvar To'ychiyev hamda qo'mita raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova ishtirokida ochiq muloqot tashkil etildi.

TADBIRKOR - ELGA MADADKOR

Iqtisodiyot va moliya vazirligida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dolzarb masalalar yuzasidan davra suhbat bo'lib o'tdi. Davra suhbatida Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orzigul Qozixonova o'z ma'ruzasida

Unda senatorlar talabalarning fikr va tashabbuslarini katta qiziqish bilan tinglab, har bir taklif hamda murojaat e'tibordan chetda qolmasligini ta'kidladi. Shuningdek, yoshlarning ilm-fanga qiziqishi, kasbiy mahoratini oshirishi, ilmiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi davlat hamda jamiyat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanishi qayd etildi.

Mamlakat taraqqiyoti bilimlari, faol va mas'uliyatli kadrlarga bog'liq ekani alohida ta'kidlandi. Shu bois yoshlardan mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, yuksak maqsadlar sari ishonch bilan intilish, Vatani ravnaqiga munosib hissa qo'shish talab etilishi aytiladi.

Davra suhbatida

Unda qatnashgan Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orzigul Qozixonova o'z ma'ruzasida yoshlar va xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb etish orqali ularning bandligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidladi.

Davra suhbatida Jahon bankining Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy direktori Najib Benxasin hamda nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish borasidagi taklif va tavsiyalarini bildirdi.

Muhokama davomida mehnat bozoriga kirib kelayotgan aholining bandligini ta'minlash, ayniqsa, kichik va o'rta biznesni kengaytirish orqali barqaror ish o'rinlari yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

"Xalq so'zi".

Shukuh

Mehnat fronti faxriylariga ehtirom

9-may - Xotira va Qadrlash kuni munosabati bilan Namangan viloyatida mehnat fronti faxriylarini e'zozlash, ularning holidan xabar olish va munosib hurmat ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tashkil etilmogda.

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi a'zosi Ixromxon Najmiddinov, hokimliklar hamda mutasaddi tashkilotlar vakillari Namangan tumani va shahrida istiqomat qilayotgan faxriylar xonadonlariga tashrif buyirdi.

Namangan tumanining O'rta Rovuston mahallasida yashovchi mehnat fronti faxriylari - Hamidjon Gapparov va Mavludaxon Madrahimova, shuningdek, Namangan shahridagi Ozod mahallasida istiqomat qiluvchi Jamilaxon Inamova holidan xabar olindi. Ular bilan samimiy suhbatlar o'tkazildi. Faxriylarning urush yillaridagi fidokorona mehnati, mashaqqatli hayot yo'li va mamlakat taraqqiyotiga qo'shgan hissasini alohida e'tirof etildi.

Tashrif davomida faxriylarga bayram tabriklari yetkazilib, ularga esdalik sovg'alari topshirildi.

"Xalq so'zi".

ASOSIY MEZON - AHOLI SALOMATLIGI

Prezidentimizning shu yil 5-maydagi "Sog'liqni saqlash tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", "Tibbiyot sohasida xususiy sektorni qo'shimcha qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari sohaga yuksak e'tiborning yana bir yaqqol dalili bo'ldi. Mazkur hujjatlar sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, boshqaruvni samarali tashkil etish va aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Munosabat

Binobarin, farmonda sog'liqni saqlash tizimida markazlashgan boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechilib, hududiy darajada mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa joylardagi muammolarni tezkor hal etish, resurslarni maqsadli taqsimlash va aholi ehtiyojlariga mos xizmat ko'rsatish imkonini beradi.

Farmonda nazarda tutilgan yana bir muhim yangilik shuki, endilikda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan Klinik audit inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalari tashkil qilinmoqda. Ushbu organ tibbiy xizmatlar sifatini, bemorlar xavfsizligini, klinik protokol va standartlarga rioya etilishini mustaqil ravishda baholaydi. E'tiborga molik jihat shundaki, inspeksiyaning nazorat doirasi faqat davlat tibbiyot muassasalari bilan cheklanmaydi, balki nodavlat tibbiyot tashkilotlari ham qamrab olinadi. Bunday tuzilma mamlakatimizda ilk bor butun tibbiyot muassasalarini, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, yagona nazorat tizimi atrofida birlashtiradi.

Mazkur yangilik mohiyatan oddiy fuqaroning haq-huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan bilan ahamiyatli. Bugungi kunda xususiy klinikalarning ko'payib borishi tanlash imkoniyatini kengaytirgan bo'lsa-da, ayni paytda sifatsiz xizmat, asossiz tashxislar va ortiqcha to'lovlar bilan bog'liq shikoyatlar jamaatchilikni tashvishga solmoqda.

Endi bunday muammolar yagona, vakolatli va mustaqil organ tomonidan ko'rib chiqiladi. Shifoxonaga murojaat qilgan har bir bemor manfaatiga, u qaysi mulkchilik shaklidagi muassasada bo'lmasin, teng darajada himoyalangan. Inspeksiyaning hududiy bo'linmalarga ega bo'lishi esa har bir viloyatda sifat nazorati tezkor amalga oshirilishini, bemorlar yirik markazlardan javob kutib o'tirmasligini ta'minlaydi.

Farmonda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish masalasi ham ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Elektron tibbiy kartalar, yagona axborot tizimlari va onlayn monitoring platformalarini yaratish orqali esa ma'lumotlar shaffoligi ta'minlanadi.



Raqamlashtirish orqali bemorlar uchun ham qulayliklar oshadi, vaqt tejali, xizmat ko'rsatish jarayoni tezlashadi.

Aytish joizki, har qanday tizim samaradorligi, avvalo, unda faoliyat yuritayotgan kadrlarga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, Farmonda tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, ularni doimiy o'qitish va qayta tayyorlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratishga ham katta e'tibor qaratilgan.

Sir emaski, bugungi zamonaviy tibbiyotni yuqori aniqlikdagi tashxis texnologiyalarisiz tasavvur etish mushkul. Kasallikni erta aniqlash, to'g'ri tashxis qo'yish va samarali davolash jarayoni, avvalo, zamonaviy tibbiy jihozlar bilan besvosita bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, hujjatda tibbiyot tashkilotlari uchun yaratilgan bo'xona imtiyozlari soha rivoji uchun muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Hujjatga muvofiq, 2029-yilga qadar tibbiy jihozlar, ularning ehtiyot qismlari, sarf materiallari hamda maxsus tibbiy transport vositalari import bo'xona bo'jidan ozod etiladi. Bu imtiyoz, avvalo, xususiy va davlat tibbiyot muassasalariga zamonaviy texnologiyalarni kamroq xarajat bilan olib kirish imkonini beradi. Shu bilan birga, import xarajatlarining kamayishi klinikalarning moliyaviy yukini yengillashtirib, investitsiyalarni ko'proq texnologiya va mutaxassislarga yo'naltirish imkonini yaratadi. Bu esa tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, zamonaviy davolash usullarini ommalashtirish va aholi uchun qulay tibbiy muhit shakllanishiga xizmat qiladi.

Sirasini aytganda, bu vazifalarning tub zamirida aholining sog'lom va baxtli umr ko'rish davomiyligini uzaytirish maqsadi mujassam.

Gulnora MARUFOVA, Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi a'zosi.

DEPUTATLAR QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRMOQDA

Xususan, "Mahsulotlarning umumiy xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasi Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi, "Bozor nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasi esa Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi mas'ulligida ko'rib chiqilmogda.

Qonun loyihalarini birinchi o'qishda muhokama qilish jarayonida siyosiy partiyalar fraksiyalari deputatlar tomonidan sohaning huquqiy va amaliy jihatlariga doir qator aniqlashtiruvchi savollar berilgandi. Deputatlar tomonidan ko'tarilgan masalalarning aksariyati texnik jihatdan tartibga solish tizimi faoliyati bilan bog'liq ekanini qayd etilgan edi.

Qonunchilik palatasi yalpi majlisida hujjatlarning amaliyotga mosligi, ularni qo'llash mexanizmlari hamda sohadagi mavjud infratuzilma imkoniyatlarini o'rganish taklifi bildirilgandi.

Shu maqsadda tashkil etilgan seminarda Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitalari a'zolari, ekspertlar hamda OAV vakillari qatnashdi.

So'zga chiqqan mutaxassislar mazkur qonun loyihalari mamlakatda mahsulotlar xavfsizligini ta'minlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish

va bozor nazoratining zamonaviy tizimini shakllantirishga qaratilganini ta'kidladi. Jumladan, "Mahsulotlarning umumiy xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasi nooziq-ovqat mahsulotlari uchun yagona xavfsizlik talablarini belgilashni nazarda tutadi. Hujjatda ishlab chiqaruvchi, import qiluvchi va distribyutorlarning majburiyatlarini aniq belgilash, muvofiqlikni baholash tartiblarini takomillashtirish hamda xavfli mahsulotlar bo'yicha tezkor ogohlantirish tizimini joriy etish ko'zda tutilgan.

"Bozor nazorati to'g'risida"gi qonun loyihasida esa mahsulot muomalaga chiqarilganidan keyin uning xavfsizligini nazorat qilish mexanizmlari mustahkamlanmogda. Xususan, nazorat xaridari, monitoring va ekspertiza kabi ta'sirchan usullarni qo'llash, nomuvofiq mahsulotlarni bozordan chiqarish va chaqirib olish tartiblarini belgilash nazarda tutilgan.

Shuningdek, hujjatlarda vakolatli organlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, iqtisodiy operatorlar mas'uliyatini aniqlashtirish hamda inson hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash mexanizmlarini joriy qilish masalalari aks etgan.

Oybek OTAMURATOV, Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi a'zosi:

Seminar doirasida texnik jihatdan

tartibga solish sohasida faoliyat yuritayotgan zamonaviy laboratoriyalar bilan ham tanishdik. Ularning moddiy-texnik bazasi, sinov va tadqiqot o'tkazish imkoniyatlari hamda yangi talablarga tayyorgarlik darajasi yaqindan ko'rdik. Soha mutaxassislari, ekspertlarning fikr-mulohazalarini eshitdik, takliflarini oldik. Albatta, bularning barchasi qonun loyihalarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Aytish mumkinki, mazkur hujjatlarning qabul qilinishi ichki bozorda xavfsiz mahsulotlar aylanmasini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat muhitini yaratish va milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga hissa qo'shadi.



"Xalq so'zi".

AJDODLAR JASORATI - IBRAT MAKTABI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo'yicha komissiyasi va Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti tashabbusi bilan ilmiy anjuman o'tkazildi.

Anjuman

9-may - Xotira va Qadrlash kuni munosabati bilan Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyida tashkil etilgan tadbirda deputatlar, olimlar, yosh parlamentariylar hamda OAV vakillari qatnashdi.

Ta'kidlanganidek, xotira - muqaddas, qadrlash esa insonga xos oliy fazilat. O'tmishni unutmagan xalqning kelajagi ham mustahkam bo'ladi. Buni yoshlar qalbiga singdirish juda muhim bo'lib, mamlakatimizda ayni yo'nalishda keng ko'lami islohotlar ro'yogba chiqarilmogda. Zero, Prezidentimiz qayd etganidek, hozirgi g'oyat murakkab va tahlikali zamonada yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, farzandlarimizni turli zararli ta'sirlardan himoya

qilish, bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorlikni, millatlar hamda dinlararo do'stlik va ahillikni asrashdek o'ta muhim vazifalarni bajarishda qahramon faxriylarimizning jasorati, shonli an'analari biz uchun hamisha ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Anjumanda so'zga chiqqanlar tarixiy xotirani asrash, uni zamonaviy yondashuvlar asosida targ'ib etish, shuningdek, yoshlar o'rtasida vatanparvarlik ruhini kuchaytirish bo'yicha qator takliflarni bildirdi.

Yakunda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan "Inson qadri uchun" g'oyasi doirasida xotira va qadrlash masalalarini yanada keng targ'ib qilish, ajdodlar merosini asrash hamda uni yoshlar ongiga singdirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

So'z - ishtirokchilarga

Oydin ABDULLAYEVA, Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari:

Yurtimizda 9-may - Xotira va Qadrlash kuni keng nishonlash orqali tinchlik va ozodlik uchun kurashgan, og'ir sinovlarni boshidan kechirgan insonlar xotirasiga cheksiz ehtirom ko'rsatiladi. Bu esa, o'z navbatida, yosh avlodni vatanparvarlik, sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki o'z tarixini bilgan, ajdodlar merosini qadrlagan yoshlarga kelajakka ishonch bilan qadam qo'yadi. Ular o'z yurti taqdiriga befarq bo'lmaydi, jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shishga intiladi. Shu nuqtayi nazardan, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi kabi ma'naviy-ma'rifiy maskanlar yoshlar uchun o'ziga xos tarbiya maktabi vazifasini o'tamoqda.

Albatta, ushbu masalalar parlamentning ham doimiy e'tiborida. Masalan, yaqinda hududlarda bo'lib, aholi bilan uchrashuvlar o'tkazildi, faxriylarimiz, keksa otaxonu onaxonlar holidan xabar oldik. Ularning yashash sharoitlari bilan tanishdik, fikr-mulohazalarini tingladik. Amin bo'ldikki, amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolar turmush tarzida yaqqol aks etmogda.

Otabek SOBITOV, Yoshlar parlamenti raisi:

Bugun biz xotira deganda faqat o'tmish voqealarini yodga olishni emas, balki ulardan xulosa chiqarishni ham tushunamiz. Ayniqsa, urush va qatag'on yillarida boshidan og'ir sinovlarni o'tkazgan xalqimizning sabr-toqati, jasorati va matonati bugungi yoshlar uchun ibrat maktabidir. Bu faqat tarix emas, bu - hayot sabog'i.

Tinchlik osonlik bilan qo'lga kiritilmagan. Uning ortida minglab insonlarning hayoti, orzulari va taqdirleri mujassam. Shu bois bugungi yoshlar zimmasida ana shu tinchlikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash kabi yuksak mas'uliyat turibdi. Xotira va qadrlash tuyg'usi esa ana shu mas'uliyatni anglashga xizmat qiladi.

Biz, Yoshlar parlamenti vakillari yigit-qizlar o'rtasida tarixiy xotirani mustahkamlash, ajdodlar merosini targ'ib qilish va inson qadriini ulug'lashga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashni ustuvor vazifalardan biri, deb bilamiz. Chunki o'z tarixi va qadriyatlariga hurmat bilan qaragan yoshlarga yurt kelajagiga daxldorlik hissi bilan yashaydi.

Munisa ARABXONOVA, Yoshlar parlamenti a'zosi:

Xotira va Qadrlash kuni yoshlar uchun katta tarbiya maktabidir. Bu sana orqali urush hamda qatag'on yillarida xalqimiz boshidan kechirgan sinovlar, ajdodlarimizning jasorati va matonati haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'lamiz. Bu esa bizda vatanparvarlik, mas'uliyat va daxldorlik tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi.

Biz, yoshlar ajdodlarimizning munosib vorislari sifatida ular qoldirgan ma'naviy merosni asrab-avaylashimiz, uni yanada boyitishimiz va kelajak avlodga yetkazishimiz kerak. Chunki xotira - bu o'tmish va kelajakni bog'lovchi ko'priq, qadrlash esa ana shu ko'prikn mustahkam ushlab turuvchi asosdir.

"Xalq so'zi".

Fikr

Biznes egalarini qiynagan muammolar yechim topdi

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 67-moddasida davlat qulay investitsiyaviy va ishlabarmonlik muhitini ta'minlash, tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekanini belgilab qo'yilgan.

Ushbu konstitutsiyaviy normalarning ro'yobini mamlakatimizda mazkur sohada izchil amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari ham ko'rsatib turibdi. Davlatimiz rahbarining har yili tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida kelib tushgan murojaatlarda ko'tarilgan tizimli muammolarni hal qilishga qaratilgan aniq taklif va tashabbuslar ham o'z yechimini topmogda.

Ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini barqarorlashtirish hamda tadbirkorlarni o'ylantirayotgan muammoli masalalarni hal etishga oid takliflar taqdimotida ham davlatimiz rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlangan va bildirilgan mulohazalar, takliflar fikrimiz dalilidir.

Yig'ilishda turli sabablarga ko'ra to'liq quvvatda ishlamayotgan va tushumi kamaygan korxonalar faoliyatini o'rganish natijalari ko'rib chiqildi. Aylanma mablag'larning yetishmasligi, ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan bog'liq muammolar, uskunalarning eskirgani, xomashyo zanjiridagi uzilishlar, mahsulotga talabning pasayishi kabi masalalar ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida aytib o'tildi.

Shuningdek, bugun aholi va tadbirkorlik subyektlarining e'tirozlariga sabab bo'layotgan yana qator muammolar ham borki, ular erkin faoliyat yuritishga to'sqinlik qilmoqda. Tadbirkorlik subyektlarining peshlavhalari va brend belgilarini joylashtirish, umumiy ovqatlanish va savdo obyektlari uchun ayrim ma'muriy talablar, mehnat munosabatlardagi tartib-taomillar, naqd pulsiz to'lovlar, soliq imtiyozlarini qo'llash, moliyaviy jarimalar, tashqi iqtisodiy faoliyatdagi hujjatbozilik kabi masalalar ana shular jumlasidand.

Bu muammolarning yechimlari taklif etilar ekan, to'liq quvvatda ishlamayotgan va tushumi kamaygan korxonalar faoliyatini tiklash yuzasidan yangi tizim joriy qilinishi belgilandi. Mutasaddi idoralar va banklar ishtirokida Respublika shabtabining tashkil etilishi esa ayni muddao bo'ldi. Chunki ular joylarga chiqib, bunday korxonalar faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlaydi va joyida hal etish choralarini ko'radi.

Taqdimotda ishlab chiqarish korxonalarini faoliyatini barqarorlashtirish hamda tadbirkorlarni o'ylantirayotgan muammoli masalalarni hal etishga oid bildirilgan takliflar tadbirkorlik faoliyati uchun ortiqcha to'siqlarni kamaytirish, nazorat va tartibga solish mexanizmlarini soddalashtirishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Pirovardida esa yangi ish o'rinlari yaratilib, aholi daromadlari oshadi va kambag'allik qisqaradi.

Aytish joizki, so'nggi yillarda tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilib borilmogda. Ularning huquq va erkinliklarini himoyalashga qaratilgan ko'plab qonunlar qabul qilindi. Yaratilgan qulaylik va imkoniyatlar tufayli yig'ib subyektlar soni ortib, tadbirkorlar iqtisodiyotimiz lokomotiviga aylanib borayotir.

Tadbirkor - iqtisodiyot poydevori, farovon hayotimizning mustahkam tayanchi. Unga barcha zarur sharoitlar yaratilsa, yurtimiz yanada taraqqiy etadi, aholining turmush farovonligi yuksaladi. Shu nuqtayi nazardan, biz, deputatlar davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalarni to'liq qo'llab-quvvatlagan holda, bu borada joylarda olib borilayotgan ishlar ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirishimiz lozim bo'ladi.

Zafar XUDOYBERDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



# KELAJAKKA BO'Y CHO'ZGAN O'TMISH MEROSI

Ochiqlik siyosati samaralari bugun nafaqat diplomatik munosabatlarda, balki iqtisodiy sohada ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi izchil oshib, savdo aylanmasi kengaymoqda, qo'shma loyihalar soni tobora ko'payyapti. Bu esa O'zbekiston atrofida barqaror va ishonchli ishlabarmonlik muhitini qaror toptirmoqda. Natijada so'nggi yillarda xalqaro hamjamiyatning Markaziy Osiyoga, ayniqsa, O'zbekistonga qiziqishi sezilarli darajada ortdi.

O'zbekiston tashqi siyosatida kuzatilayotgan bugungi yuksalish bejiz emas. Buning zamirida xalqimizning asrlar davomida shakllangan boy tarixiy tajribasi, bag'rikeng dunyoqarashi va ochiq muloqot madaniyatini mujassam. Dunyo bilan teng huquqli munosabatlarni o'rnatish, o'zaro manfaatli savdo-sotiqni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi tamoyillar xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosi va sivilizatsion qadriyatlaridan oziq oladi.

## Noyob afzallik


Mamlakatimiz dunyoda kam uchraydigan afzalliklarga ega. O'zbekiston hududi qadim-qadimdan, bir necha yuz yillik davomida g'oyalar, bilimlar va turli mahsulotlar almashinib kelgan markazda joylashgan. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasi va markazi bo'lib hisoblangan shaharlar orqali o'tuvchi yo'nalishlar bugungi kunda ham ochiqlik ramzi, deya tan olinadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent singari manzillar turli sivilizatsiyalarning hamkorligi tajribasiga yaqqol misol bo'lgani holda, aynan shunday ruh bilan sug'orilgan.

Davlatimiz rahbarining tarixiy meros haqida takror-takror gapirishi bejiz emas. Uchinchi Renessans, degan ibora ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tufayli ijtimoiy-siyosiy doiralarda muomalaga kirdi. Bunday keng ko'lami buyuk g'oyani yangi avlodlar ro'yobga chiqaradi. Modomiki, zaminimizda avval ham shunday kuchli madaniy-ma'rifiy hodisalar ro'y bergan ekan, taraqqiyotning yangi bosqichida ham ularga tayansak bo'ladi.

Mana shu fikrni anglab yetish jamiyatimizning ichki ruhiyatini belgilaydi. Tarix endi faqat yillar va voqea-hodisalar yig'indisi, ketma-ketligi emas, balki insonning o'ziga ishonchi, ilhom manbaiga aylandi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan xayriy tashabbuslar aynan shu asosda ro'yobga chiqmoqda. Shunisi muhimki, ular tez sur'atda o'zbekistonliklarni quvontiradigan, xorijiy mehmonlarning hayratini oshiradigan tarzda namoyon bo'lmoqda.

Yangi misollardan biri - O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi. Uni bunyod etish haqidagi g'oya Birlashgan Millatlar Tashkilotining yuqori minbaridan turib yangragan va mintaqamizdan uzoq o'lkalarda ham qo'llab-quvvatlangan edi. Ushbu mega-loyihani amalga oshirish izchillik bilan, bosqichma-bosqich davom etdi. Uni ro'yobga chiqarish uchun jalb etilgan mutaxassislarni sanab o'tishning o'zi qiyin.

Natijada poytaxtning markazida, Hazrati Imom majmuasi yaqinida shunday makom paydo bo'ldi, u ko'lami va g'oyasiga ko'ra odatiy muzeylardan ancha farq qiladi. Deyarli 10 gektarga yaqin maydon va 50 ming kvadrat metr hududdagi binolardan iborat bu majmuada turli tarixiy davrlarni aks ettiruvchi ekspozitsiyalarni o'z ichiga oladi.



Oxirgi bir yilda markaz fondi bir yarim mingdan ziyod eksponat bilan to'ldirildi. Ular orasida yuzlab qo'lyozmalar, arxeologik topilmalar, tarixiy xaritalar bor. Chet ellik kolleksiyaga to'plovchilardan, auktsionlardan sotib olingan asl nusxadagi artefaktlar mamlakatimizga qaytarilmoqda. Markaziy zalda Usmon Mus'hafi, ya'ni dunyodagi eng ko'hna Qur'onlardan biri joylashtirildi. Uning yonida - turli davrlarga tegishli noyob qo'lyozmalar. Majmuada shunday ziyoratgohga aylandi, u yerda o'lkamizning buyuk tarixi va olamga mashhur shaxslarning hayoti haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Davlatimiz rahbari markazga tashrif buyurib, u el-yurtimizga, jahon ahliga hamisha beminnat xizmat qilishi haqida o'z fikrlarini bildirdi:

**- Bugun o'zligimizni anglash yo'lida katta tantana bo'ldi. Ming shukrki, to'qqiz yil davomida niyat qilib, izlanib, harakat qilib, xalqimizning**

**kimligini, tariximizni haqqoniy aks ettiradigan majmuani barpo etdik. Bu yerga kelgan har bir inson, ayniqsa, yoshlarimiz, qanday ajdodlar avlodi ekanimizni bilishi, anglashi kerak. Bu ulkan loyiha oddiy bir chizma emas. Uni yurak chizgan, mehr chizgan, orzu va armonlar chizgan. Qur'oni karim saqlanadigan muqaddas zal ham shunchaki yaratilgan emas. U yurakdan tug'ilgan, xalqimizning orzu-intilishlari va buyukligini namoyon etish istagidan paydo bo'lgan maskandir. Bu loyiha buyuk xalqimizning asl qiyofasini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ezgu niyatlar mahsulidir.**

Germaniyaning "Reiseblick" nashri "Dunyoda yagona", 2025-yilda O'zbekistonga 12 millionga yaqin sayyohlar tashrif buyurgan. Bunda o'shish 16 foizni tashkil etgan bo'lsa, sayyohlik xizmatlari eksporti 4,8 milliard dollarga yetgan. Nashrda e'tirof etilganidek, bunday loyihalar O'zbekistonning sayohat uchun eng istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida tanilishiga xizmat qiladi.

Yevropalik jurnalistlar keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonga 12 millionga yaqin sayyohlar tashrif buyurgan. Bunda o'shish 16 foizni tashkil etgan bo'lsa, sayyohlik xizmatlari eksporti 4,8 milliard dollarga yetgan. Nashrda e'tirof etilganidek, bunday loyihalar O'zbekistonning sayohat uchun eng istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida tanilishiga xizmat qiladi.

## An'analarga sadoqat va milliy o'zlik

Ayni paytda O'zbekistonning boy merosini yorqin namoyon etish, ziyoratgohlarni obod qilish ishlari mamlakatimizning barcha hududlarida olib borilmoqda. Jumladan, Samarqandda Imom Buxoriy majmuasi yangicha mazmunda qayta shakllantirilib, sezilarli darajada kengaytirildi. Qariyb 45 gektar hududda bir kunda 65 ming nafargacha ziyoratchini qabul qilish imkoniga ega infratuzilma yaratildi, holbuki, avval bu ko'rsatkich 12 mingdan oshmas edi. Imom Buxoriy islom olamida alohida o'rin tutadi. Uning "Sahihul Buxoriy" nomi bilan mashhur asari eng nufuzli hadis to'plamlaridan biri hisoblanadi. U yigirmadan ortiq asar yozgan bo'lib, ularning ahamiyati bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda.

Majmuada buyuk ajdodimiz merosiga munosib ishlar amalga oshirildi. Bu yerda o'n ming kishilik masjid, ma'muriy binolar, yuzdan ortiq ustunli ayvon barpo etildi. Muzeyga alohida e'tibor qaratildi. U to'qqizta pavilyondan iborat bo'lib, ularda Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy merosi namoyish etilgan. Ekspozitsiyalarni yanada tushunarli qilish maqsadida zamonaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Yangilangan majmuaning ochilish marosimida davlatimiz rahbari bunday obyektlar ma'rifatga xizmat qilishi va yoshlarga dinning ma'naviy asoslarini yaxshiroq anglashga yordam berishi lozimligini ta'kidladi.

**- Ushbu betakror quyilish yangi O'zbekistonning ulkan imkoniyatlarini yaqqol namoyon etadi. Ziyoratgoh xalqimiz uchun,**

rekonstruksiya qilingani va sig'imi 5-martadan ziyod oshganiga alohida e'tibor qaratildi. Ta'kidlanishicha, keng ko'lami qayta qurish ishlari natijasida ziyoratchilar va sayyohlarga qulay sharoitlar yaratilgan. Majmuada an'anaviy me'morchilik va raqamli eksponatlar hamda mehmonxona infratuzilmasini o'z ichiga olgan zamonaviy yechimlar uyg'unlashtirilgan. Mualliflarning fikricha, Imom Buxoriy majmuasi chinakam ma'rifat maskaniga aylangan.

So'nggi vaqtlarda bunday loyihalar mamlakatimizning turli hududlarini bezab turibdi. Samarqandda ko'p funksiyali "Ipak yo'li" turistik majmuasi sayyohlarni jalb etmoqda, qadimiy Xorazm zaminida "Arda Xiva" xalqaro markazi barpo etildi. Yaqinda esa Marg'ilonda "Burhoniddin Marg'inoniy" ilmiy-ma'rifiy majmuasi tashkil qilindi.

Marg'ilon - ilmu hunarmandchilik bilan bog'liq ko'p asrlik tarixga ega shahar go'yo yangi hayotbaxsh kuchlarga to'lgandek. Majmuani ochish marosimida Prezidentimiz ushbu shahar qadimdan ma'rifatparvarlar zaminini deb hisoblanganini eslatib, yangi loyihalar ana shu an'anani davom ettirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Milliy me'morchilik an'analari asosida barpo etilgan va 35 gektar hududni egallagan noyob majmuada Islom huquqshunosligi instituti, maqom teatri, ochiq amfiteatr, o'lakashunoslik muzeyi, adiblar va san'atkorlar xiyoboni, hunarmandlar markazi, mehmonxonalar va xizmat ko'rsatish tarmoqlari kabi ko'plab bino va inshootlardan iborat. Bularning barchasi, avvalo, ajdodimiz Marg'inoniyning boy ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish, hududning qadimiy hunarmandchilik an'analarini saqlash, ziyorat turizmini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ushbu muhtasham inshoot Yangi O'zbekistonning noyob obidalarini qatorida munosib o'rin egallab, Farg'ona viloyatining "tashrif qog'oz"laridan biriga aylanishiga ishonch bildirdi. Shuningdek, aynan shunday ma'rifat, ilm-fan va bilim markazlarida orzu qilganimizdek yangi Buxoriy, Termiziy, Farg'oniylar, Xorazmiy va Marg'inoniylar

**“Mamlakatimiz dunyoda kam uchraydigan afzalliklarga ega. O'zbekiston hududi qadim-qadimdan, bir necha yuz yillik davomida g'oyalar, bilimlar va turli mahsulotlar almashinib kelgan markazda joylashgan. Buyuk Ipak yo'lining chorrahasi va markazi bo'lib hisoblangan shaharlar orqali o'tuvchi yo'nalishlar bugungi kunda ham ochiqlik ramzi, deya tan olinadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent singari manzillar turli sivilizatsiyalarning hamkorligi tajribasiga yaqqol misol bo'lgani holda, aynan shunday ruh bilan sug'orilgan.”**

avlodini tarbiyalab voyaga yetkazishimiz mumkinligini ta'kidladi.

Ilhom bag'ishlovchi o'zgarishlar manzarasidagi alohida yorqin jihatlardan biri - Toshkentdagi Temuriylar tarixi davlat muzeyining Sohibqiron tavalludining 690-yilligi munosabati bilan rekonstruksiya qilinishi bo'ldi.

Amir Temur shaxsiyatini mintaq tarixini anglashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Mashhur sarkarda va dono hukmdor qudratli davlat barpo etdi, boshqaruv asoslarini yaratdi, ilm-fan va madaniyat rivojini qo'llab-quvvatlatdi. O'sha davr me'moriy yodgorliklari hozirgacha mamlakatimiz va qator boshqa davlatlar qiyofasini belgilab turibdi.

Sohibqironning adolati boshqaruv tamoyili sifatida ulug'lagan dono vasiyatlarini asrlar osha alohida qadrgimnat kasb etmoqda va bugun muhim yo'l-yo'riq sifatida qabul qilinmoqda.

Yangilangan muzeyni ko'zdan kechirish chog'ida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev asosiy vazifa ushbu merosni jamiyatga, ayniqsa, yoshlarga yetkazish ekanini ta'kidladi. Zero, mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bilimlarni ajdodlar tajribasidan topish mumkin va buni odamlarga yetkazish muhim.

Davlatimiz rahbarining bu fikri xorijda ham ijobiy aks sado berdi. Yevropaning "EU Reflect" nashri Temuriylar merosiga murojaat qilish milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qilishi va O'zbekistonni boy tarixi hamda rivojlanayotgan intellektual salohiyatga ega mamlakat sifatida tanitishini yozdi.

## Barqarorlik makoni

Mamlakatda ro'y berayotgan o'zgarishlar haqidagi mulohazalarni davom ettirib ekanimiz, bu borada ko'pincha e'tibordan chetda qolib ketadigan bir jihatchi tan olish muhim. Uzoq vaqt davomida aynan iqtisodiy ko'rsatkichlar "ustqurma"ning qolgan qismini - ijtimoiy tuzilma, madaniy muhit, hatto odamlarning kundalik xatti-harakatlarini shakllantiradi, deb hisoblangan. Bunday yondashuv soddadek tuyulishi bilan qulay bo'lsa-da, real hayotda har doim ham ish bermaydi. Raqamlardan tashqari davlat jamiyatning barqarorligini belgilaydigan narsalar bor. Ular qatorida qadriyatlar, tarixiy xotira, bag'rikenglik va ochiqlik, shuningdek, bilimlarga munosabatni sanab o'tish mumkin.

So'nggi yillar tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu omillar ikkilamchi emas. Ular har doim ham statistika bilan o'lchanmaydi, ammo har doim ishonch darajasiga, investitsiya muhitiga va hamkorlik uchun tayyorlikka bevosita ta'sir qiladi. Bu, ayniqsa, O'zbekistonda sezilarli.

Asrlar davomida ijtimoiy an'analarga singib ketgan tinchlikparvarlik va muloqotga sodiqlik muhim resursga aylanib bormoqda. Odatda, mojarolarga aralashmagan va izchillik bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatishga odatlangan mamlakat biznes uchun xavfsiz makon sifatida qabul qilinadi. Ko'pincha madaniy o'ziga xoslik sifatida e'tirof etilgan mehmondo'stlik aslida turizm o'sishining omili bo'lib xizmat qiladi. Qadimdan mintaqaga xos bilimga chanqoqlik bugungi kunda texnologiya, ta'lim hamda



IT va sun'iy intellekt kabi yangi sohalariga qiziqishda tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda.

Buni tashqi e'tiroflar ham tasdiqlaydi. Xorijiy kuzatuvchilarning ta'kidlashicha, aynan tinchlik va xavfsizlik hukmronligi O'zbekistonni, majoziy ma'noda, global tartibsizliklarning notinch okeaniga barqarorlik oroliga aylantiradi. Italiyaning "Il Giornale" gazetasida "O'zbekiston - G'arb va Sharq o'rtasida xavfsiz ko'priq" nomli maqolada ushbu xususiyatga e'tibor qaratiladi. Maqola muallifi Nursiya Paganining yozishicha, Yaqin Sharqdagi mojarolar, Fors ko'rfazidagi keskinliklar va Rossiya - Ukraina inqirozi fonida mamlakat geosiyosiy istisno bo'lib ko'rinadi, bir vaqtning o'zida iqtisodiy imkoniyatlari bilan rom qiladi. Uning so'zlariga ko'ra, rasmiy Toshkent asta-sekin o'z atrofida tahlilchilar "barqarorlik makoni" deb ataydigan, u orqali aviatsiya, logistika va turizm yo'nalishlari o'tadigan hududni shakllantirmoqda.

"Mamlakat harbiy harakatlardan frontidan chetda, ichki barqarorlikka ega, Yevropa va Osiyo o'rtasidagi tabiiy markaz sifatida mustahkamlanmoqda", deb ta'kidlaydi muallif.

Jurnalist yana bir muhim fikrni ta'kidlaydi. O'zgarib borayotgan global geografiyada tobora ko'proq yangi yo'nalishlarni izlayotgan Yevropa mamlakatlari uchun O'zbekiston avvalgi stereotiplardan xoli ravishda ko'rib chiqishga arziydigan tanlovga aylangan. Ochiqlik va barqarorlik alohida qiymatga ega bo'lgan bugungi kunda mamlakat ustunlikka ega.

Biroq global inqirozlar O'zbekistonni chetlab o'tgan, deyish u qadar to'g'ri emas. Mamlakat iqtisodiyoti global jarayonlarga integratsiyalangan va shu bois tashqi barqarorlik muqarrar ravishda unga ta'sir qiladi. Lekin ko'rilayotgan tezkor qarshi choralar ta'sirni yumshatish, barqaror sur'atni saqlab qolish imkonini beradi.

Hayratlanarli natijalar Samarqandda bo'lib o'tgan Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashining 59-yillik yig'ilishida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'lon qilindi. Uning nutqida erishilgan g'alabali ko'rsatkichlar ham, strategik mezonlar ham bayon qilindi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotga taxminan 150 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Minglab yangi korxonalar ishga tushirildi va elektr energiyasi ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi. Tovarlar va xizmatlar eksporti uch karra oshdi va umumiy iqtisodiy mahsulot hajmi ham qariyb uch baravarga ko'payib, 147 milliard dollarga yetdi. Bunday sharoitda mazkur o'zgarishlar faqat makroiqtisodiy soha bilan cheklanib qolmagani e'tiborli. Kambag'allik darajasining qariyb 35 foizdan 5,8 foizgacha pasayishi va millionlab o'zbekistonliklar daromadlarining oshishi odamlarning kundalik hayotiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadigan natijalardir.

Bir vaqtning o'zida tashqi baholashlar ham yaxshilanmoqda. 2020-yildan beri O'zbekiston o'zining suveren kredit reytinglarini doimiy ravishda oshirib kelmogda. Mamlakat birinchi marta iqtisodiy erkinlik indeksida "mo'tadil erkin" toifasiga kirdi. Global beqarorlik sharoitida ham birinchi chorakda YAIM o'sishi 8,7 foizni tashkil etdi.

Xalqaro moliya institutlarining munosabati,

ayniqsa, diqqatga sazovor. Osiyo taraqqiyot banki vakillari vaziyatni to'g'ri baholab, investorlarning mamlakat haqidagi tasavvurlarida sezilarli o'zgarishlarni qayd etmoqda. Samarqanddagi forumda so'zga chiqqan OTBning Xususiy sektor operatsiyalari departamenti bosh direktori Izabel Chatterton islohotlar xavflar balansini sezilarli darajada o'zgartirganini va O'zbekistonni yanada tushunarli va jozibador bozorga aylantirganini ta'kidladi. Mutaxassisning so'zlariga ko'ra, investorlar bu yerda tobora ko'proq uzoq muddatli imkoniyatlarni ko'rmogda. Gap alohida loyihalar haqida emas, asosiy e'tibor energetika kabi barqaror portfelni yaratishga qaratilayotir. Bundan tashqari, hatto dengizga chiqish imkoniyati yo'qligi kabi an'anaviy cheklolvar ham endi muhim omillar sifatida qabul

qilinmaydi.

"Umuman olganda, O'zbekiston bo'yicha bizning prognozimiz juda ijobiy. Biz mamlakatga investitsiya kiritishdan juda manfaatdormiz", dedi Izabel Chatterton.

Shunga o'xshash e'tiroflar Yevropa matbuotida ham o'z aksini topmoqda. Yana bir italyan nashri "Il Sole 24 Ore"da mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarga e'tibor qaratiladi. "O'zbekiston xomashyo iqtisodiyotidan diversifikatsiyalangan, tez rivojlanayotgan bozorga aylandi. Xitoy, Rossiya, Yevropa va Yaqin Sharq o'rtasidagi strategik joylashuvi tufayli mamlakat Markaziy Osiyoning iqtisodiy dvigateliga va Yevropa mamlakatlari uchun muhim sherikka aylangan", deya yoziladi gazetada.

Shubhasiz, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar alohida tashabbuslar yoki qisqa muddatli loyihalar yig'indisi emas. Ular davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan tashqi ochiqlik, iqtisodiy yangilanish va milliy merosga tayanish tamoyillari o'zaro uyg'unlashgan yaxlit taraqqiyot strategiyasining amaliy ifodasidir.

Bu yondashuv chuqur tahlil va uzoqni ko'zlagan siyosiy tafakkur mahsulidir. Unda kelajakni aniq maqsadlar asosida qurish, xalqimizning salohiyati, mehnatkashligi va bunyodkor kuchiga tayanish kabi muhim tamoyillar mujassam. Eng muhimi, ana shu izchillik mamlakat ichida ham, xalqaro hamkorlar va investorlar o'rtasida ham ishonch muhitini mustahkamlamoqda.

Yangi O'zbekiston aynan shu mustahkam mantiqiy asos - pragmatik yondashuv va milliy qadriyatlarga sadoqat uyg'unligi negizida barpo etilmogda. So'nggi yillarda mamlakatimizda kuzatilayotgan salmoqli iqtisodiy o'sish, xalqaro nufuzning ortishi va jamiyat hayotidagi ijobiy o'zgarishlar ana shu siyosatning amaliy samarasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, har bir sohadagi yuksalish, xalqimizning milliy g'ururi ko'tarilib, mamlakatimizning jahondagi obro'-e'tibori oshayotgani ko'nglimizni to'qinlantirayotgani shubhasiz. Quvonch va hayajon, eng nafis, ko'tarinki tuyg'ular esa ilhom buloqlarini jo'sh urdirib, ongu tafakkurni yayratib, yashnatib, ijod chamaniga ajib guldastalar hadya etadi:

*Hurlik mang'u bo'lar yashnagan yurtda,  
Gullagan bog'larning tolesi so'lmas.  
Odamlari gulgun yashagan yurtda,  
Masa'dalar ulug'dir, istaklar so'nmas.  
Orzulari qadar fulagidir u,  
Oqil Yurtboshimning tilagidir u!*

*Kimlardir bir chetdan so'zlar, na chora,  
Qablari riyoga, hasadga moyil.  
Ularga qudratin etgan oshkora,  
Bunyodkor qo'llarga ofarin, qoyil!  
Deyman, ezgu ishlar aylansa davom,  
Ko'ngilni bezaydi yana xush kalom.*

*Qo'llab turar piru avliyolarim,  
O'tgan har bir kunim tarix, g'animat.  
Tinchlik - toju taxtim, obodlik - zarim,  
Kelajak chorlaydi oldinda faqat -  
Elim, ulug' yo'ling etsin bardavom,  
Murodu maqsading yor bo'lsin mudom.*

O'tkir RAHMAT.

Frqaxoni yashash joyi va trxgan joyi bo'yicha ko'yxatdan o'tkazish haq ikki tomon (mrlkdox va frqaxo) ishtikokida amalga oshikiladi va flaxning koziligi "Facy-ID" yoki "Mobily-ID" tizimi oqqli tasdiqlanadi.



**Shaxmat:**  
**MAG'LUBIYATSIZ SERIYA DAVOM ETYAPTI**

Shvetsiyaning Malmyo shahrida o'tkazilayotgan shaxmat bo'yicha nufuzli "TePe Sigeman - 2026" turniri o'zining qizg'in pallasiga kirdi.



Musobaqada sakkiz grossmeyster bosh sovrin uchun bahs olib bormoqda. Ular orasida yurtdoshimiz Nodirbek Abdusattorov hamda jahon reytingi yetakchisi norvegiyalik Magnus Karlsen ham bor.


Musobaqaning 6-turida Nodirbek turkiyalik 14 yoshli Yagiz Kaan Erdog'mushga qarshi qora donalarda o'ynadi va durangga rozi bo'ldi. Bu qarshi Nodirbekning mag'lubiyatsiz seriyasi davom etdi, lekin peshqadam bilan o'rtadagi farq bir ochkoq yetdi.

Oltinchi turdan so'ng Arjun Erigasi (Hindiston) karvonboshi, Yagiz Kaan va Magnus Karlsen 4 ochko bilan kuchli uchlikdan joy oldi. N. Abdusattorov 3,5 ochko bilan 4-o'rinni band etdi.

**Futbol:**  
**MILLIY JAMOAMIZ O'RTOQLIK O'YINLARIGA TAYYORLANMOQDA**

AQSh, Kanada va Meksika yashil maydonlarida o'tkaziladigan Jahon chempionati startiga bir oydan ko'proq vaqt qolganida Fabio Kannavaro murabbiyligidagi O'zbekiston milliy terma jamoasi so'nggi mashg'ulot yig'inlariga kirishdi.

6 - 26-may kunlari Toshkentdagi Milliy futbol markazida tashkil etiladigan yig'in doirasida terma jamoa Superliganing 3 ta klubiga qarshi yopiq nazorat uchrashuvlarida maydonga tushadi.



Shundan keyin 27-mayda AQShga boriladi. Uch kunlik kichik mashg'ulotdan so'ng 1-iyun kuni Kanadaning Edmonton shahrida milliy jamoamiz xalqaro o'rtoqlik bahsida mezbonlar bilan kuch sinashadi.

Vakillarimiz FIFA Jahon chempionati oldidan so'nggi o'rtoqlik o'yinida Niderlandiyaga qarshi maydonga chiqadi. O'yin 8-iyunda Nyu-York shahridagi "Icahn Stadium"da bo'lib o'tadi.

**Xokkey:**  
**JASURBEK - TARIXIY VOQEA SABABCHISI**

Yurtimizda futbol, boks, shaxmat va sport kurashlari bo'yicha turli yutuqlar qo'lga kiritilayotgan bir paytda xokkeyda ham tarixiy voqea yuz berdi.



Gap shundaki, 18 yoshli Jasurbek Rustamxonov AQSh yoshlar xokkey ligasida ishtirok etuvchi "Dubuque Fighting Saints" jamoasi tomonidan 2026-yilgi mavsum uchun "draft" qilindi.

Bu - klub uni kelajakda jamoaga qo'shish uchun tanlab oldi, degani. Ya'ni hali rasmiy shartnoma mavjud emas, lekin sportchimiz uchun bu katta imkoniyat.

Mazkur voqea O'zbekiston xokkeyi tarixidagi ilk katta yutuq hisoblanadi. Endi J. Rustamxonov sinovdan yaxshi o'tsa, AQShdagi klub tarkibida o'ynashni boshlaydi.

Xokkeychi iyun oyida Ayova shtati, Dubyuk shahriga sinov yig'ini uchun boradi. Asosiy mashg'ulot 9 - 12-iyun kunlari bo'lib o'tishi rejalashtirilgan.

"Dubuque Fighting Saints" "USHL" ligasi ishtirokchisi bo'lib, mazkur chempionat Shimoliy Amerikadagi eng kuchli yoshlar xokkey ligalaridan biri sanalib, u orqali o'yinchilar keyinchalik "NCAA" va "NHL" kabi yuqori darajalarga chiqish imkoniga ega bo'ladi.

Joriy mavsumda Jasurbek Chexiyaning "Karlovi" yoshlar jamoasida o'ynadi. U 30 ta o'yinda 23 ochko (13 ta gol va 10 ta assist) to'pladi.

Sunnatilla ISLOMOV ("Xalq so'zi") tayyorladi.

**TARIXIY ADOLAT TANTANASI**

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari nafaqat joriy huquqiy munosabatlarni tartibga solish, balki tarixiy adolatni tiklashga ham qaratilgan bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, qatag'on qurbonlarini oqlashga qaratilgan har bir sud qarori - bu faqat huquqiy hujjat emas, balki millat vijdoni oldidagi qarzni uzilishi, adolatning tiklanishidir.

**Odil sudlov**

Sir emas, mustabid tuzum davrida nohaq ta'qib qilingan, asossiz ayblovlar bilan jazolangan yurtdoshlarimiz taqdiri uzoq yillar davomida yetarlicha o'rganilmadi. Biroq so'nggi yillarda bu borada davlat siyosati mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Xususan, 2020-yil 8-oktabrda qabul qilingan "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyish ushbu yo'nalishdagi ishlarga mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Mazkur hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzurida Respublika ishchi guruhi tashkil etildi. "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilgani va bu boradagi tizimli ishlar olib borilgani natijasida arxivlarga keng kirish imkoniyati yaratildi, ilmiy va huquqiy tadqiqotlar integratsiya qilindi. Bu sa'y-harakatlarning

barchasi ilgari e'tibordan chetda qolgan ko'plab taqdirni qayta tiklash imkonini berdi.

Joriy yil 6-may kuni bo'lib o'tgan ochiq sud majlislari tarixiy adolatni tiklash yo'lida navbatdagi muhim qadam bo'ldi. Unda 1920 - 1934-yillardagi qarorlar asosida ayblangan shaxslarga oid jinoyat ishlari qayta ko'rib chiqildi. Ushbu ishlar Turkfront va o'sha davr siyosiy tuzilmalari qarorlari bilan bog'liq bo'lib, ko'p hollarda asossiz ayblovlar tayanganini aniqlandi.

Sud tomonidan 8 ta jinoyat ishi ko'rib chiqildi. 161 nafar shaxsga nisbatan Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan oqlov hukmlari chiqarildi. Ushbu qaror bir vaqtning o'zida ham huquqiy, ham ma'naviy, ham tarixiy

ahamiyatga ega. Bu bir asrga yaqin vaqt davomida soya ostida qolgan haqiqatning tiklanishidir.

Alohida ta'kidlash joizki, bu yakka holat emas. Oliy sud huzuridagi ishchi guruh faoliyati natijasida so'nggi yillarda jami 1 236 nafar qatag'on qurboni oqlandi. Har bir raqam ortida

tergov jarayonida qonunbuzilishlar, ayblovning taxminlarga asoslangani, inson huquqlarining ta'minlanmagani shular sirasidan. Ushbu omillar tarixiy ishlardagina emas, balki ayrim zamonaviy ishlar uchun ham xos bo'lishi mumkin. Shu bois sudlar tomonidan dalillarni har tomonlama, xolis baholash amaliyoti kuchaytirilmoqda.

Jahon amaliyotida oqlov hukmlari sud mustaqilligining asosiy indikator hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda oqlov qarorlari oddiy hol sifatida qabul qilinadi. Mamlakatimizda esa bu jarayon tarixiy adolatni tiklash bilan uyg'unlashib, o'ziga xos milliy modelni shakllantirmoqda.

Umuman, qatag'on qurbonlarini oqlash - bu o'tmishga baho berish emas, aksincha, millat xotirasini tiklash, inson qadriini ulug'lash, eng muhimi, adolatni ta'minlash demakdir. Haqiqat shuki, adolat kechiksa-da, baribir qaror topadi. Yurt ozodligi, e'tiqodi va milliy qadriyatlar yo'lida qurbon bo'lgan ajdodlarimizning pok nomlari xalqimiz qalbidabadiy yashaydi.

Ilhom RAHMONQULOV,  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy sudi sudyasi.

**"Sud tomonidan 8 ta jinoyat ishi ko'rib chiqildi 161 nafar shaxsga nisbatan Jinoyat-protsessual kodeksining 83-moddasiga asosan oqlov hukmlari chiqarildi. Ushbu qaror bir vaqtning o'zida ham huquqiy, ham ma'naviy, ham tarixiy ahamiyatga ega. Bu bir asrga yaqin vaqt davomida soya ostida qolgan haqiqatning tiklanishidir."**

inson taqdiri, buzilgan hayot, yo'qotilgan avlodlar orzu-umidlari turganini unutmasligimiz kerak.

Sud amaliyoti tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, oqlov qarorlariga olib kelayotgan asosiy omillar mavjud. Bularga dalillarning yetarli emasligi,

**"AYTGIN DO'STIM, NIMA QILDING VATAN UCHUN?"**

Tarix mezonida buyuk shaxslar faoliyati doimo Vatan manfaatlarini baholangan. Insonning ulug'ligi uning yurt ravnaqiga qo'shgan hissasi bilan o'lchanadi. Bu tamoyil bugungi murakkab va tezkor o'zgaruvchan dunyoda ham o'z ahamiyatini to'liq saqlab qolmoqda.

**Nuqtai nazar**

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonni yangi tafakkur egalari barpo etadi" degan so'zlari ta'lim va ilm bilan shug'ullanayotgan har bir insonning millat taraqqiyotidagi o'rini yaqqol belgilab beradi. Ushbu so'zlar chuqur falsafiy va siyosiy dastur bo'lib, aqliy salohiyatni ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish g'oyasini o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimidagi har bir yangilik, innovatsion yondashuv va har bir zamonaviy pedagog bu konsepsiyaning jonli ifodasidir.

"Vatanparvarlik" tushunchasi tarixan ko'p qirrali ma'no kasb etib kelgan. Zamonaviy ijtimoiy-psixologik yondashuv bu tushunchani shaxsning ijtimoiy faoliyati, kasbiy mas'uliyati va fuqarolik ongi bilan bevosita bog'liq holda talqin qiladi. Ilmiy jihatdan vatanparvarlik - shaxsning jamiyat hamda davlat manfaatlariga yo'naltirilgan tizimli va ongli faoliyati.

Dunyoning yetakchi universitetlari tajribasi ham aynan shu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, AQShdagi Harvard universitetida talabalar faqat auditoriyalarda o'tirib nazariy bilim olish bilan cheklanib qolmaydi. Ular jamiyat muammolariga yechim topishga qaratilgan ilmiy loyihalarda faol qatnashadi, real hayot muammolari ustida izlanish olib boradi. Bu yerda "Xizmat orqali ta'lim" deb ataladigan tizim keng qo'llanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, talaba o'z bilimini jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan loyihalar orqali sinab ko'radi. Natijada yoshlar bilimli mutaxassis bo'lish barobarida ijtimoiy mas'uliyatni chuqur anglaydigan faol fuqarolar sifatida shakllanadi.

Buyuk Britaniyaning Oksford va Kembrij universitetlarida esa talabalar



tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil sintezi qobiliyati hamda akademik halollikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu universitetlarda talabalar ilmiy tadqiqotlar orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan g'oyalarni ilgari suradi. Shuning uchun ham ushbu oliy ta'lim maskanlari nafaqat ilm-fan markazlari, balki jamiyat yetakchilarini tarbiyalovchi maktab sifatida tanilgan.

Janubiy Koreya va Singapur kabi davlatlarning taraqqiyoti ham ta'lim va ilm-fanga berilgan ulkan e'tibor natijasi. Bu mamlakatlarda universitetlar sanoat, iqtisodiyot va texnologik markazlar bilan uzviy hamkorlikda ishlaydi. Talabalar o'qish jarayonidayoq startaplar, innovatsion texnologiyalar va ilmiy loyihalar orqali mamlakat rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Bu - o'z nomi bilan intellektual vatanparvarlik.

Professor-o'qituvchilar jamiyatning ma'naviy va intellektual ustunlari sanaladi. Ular faqat bilim berish bilangina cheklanmay, fikriy yo'naltiruvchi, kelajak avlodni shakllantiruvchi, milliy qadriyatlar va zamonaviy bilimlar o'rtasidagi ko'priklar vazifasini o'taydigan shaxslardir. Ular yaratgan ilmiy asarlar, yangi metodikalar,

Shaxsning elu yurt uchun nima qilganini aniqlashda uning so'zlariga emas, amallariga qarash zarur. Professor-o'qituvchilar o'z ilmiy faolligi, mehnatsevarligi va fidoyiligi bilan, talabalar esa o'qishga bo'lgan mas'uliyati, o'z ustida ishlashi va ijtimoiy faolligi bilan Vatanga hurmatini bildiradi. Vatanga sadoqat bir marta bajariladigan qahramonlik emas, har kuni, har bir qarorda, har bir ish va munosabatda namoyon bo'ladigan hayot tarzidir.

Azizxon TILLAXO'JAYEV,  
Texnologiya, menejment va kommunikatsiya institutining  
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi  
prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**9-may - Xotira va Qadrlash kuni**

**MARHA OTANING DUOSI**

Suronli Ikkinchi jahon urushi frontida qon kechgan, jon olib, jon bergan ajdodlarimizning yorqin xotirasi hamisha qalbimizda. Dorilamon kunlar shukronasini aytgan minnatdor avlodlar jangchi bobolarning jasoratini asrlar mobaynida eslashi tabiiy.

Darhaqiqat, urushning mislsiz dahshati va bor vahshati frontida sodir bo'lib, ko'plarning yostig'ini quritgan esa-da, uning sovuq shamoli front ortidagi qariyalari, ayollar hamda bolalarning tinkasini ham quritgani rost. Qahatchilik, yetishmovchilik va og'ir mehnat hammani ham birdek sinovdan o'tkazgan. Bugun eshitganlarning har biriga ertak yo' afsonadek tuyuluvchi o'tgan kunlar xotirasi O'rta Chirchiq tumanidagi Yuqoriovul mahallasida yashovchi Ikkinchi jahon urushi front orti mehnat faxriysi Marha ota Sotiboldiyevning yodidan, mana, qariyb bir asrdirki, o'chgan emas.



Marha otaning hayot yo'li - yuksak matonat va halol mehnat maktabi. Yoshligidan yetimlikni boshdan kechirib, 12 yoshidan mehnat maydoniga kirgan. U paxtazorlarda suvchi, keyinchalik brigadir bo'lib ishladi. Marha ota atigi uch sinf ta'lim olganiga qaramay, umrini halol mehnatga bag'ishlagan fidoyi inson sifatida har qancha e'zozga sazovor. Front orti mehnat faxriysini ziyorat qilib kelgan yoshlarga otaxonning 76 yoshli o'g'li Kamol ota o'tgan yillar xotiralarini so'zlab beradi.

Otaxon keksalik tufayli garchi gapira olmay qolgan bo'lsa-da, front orti qahramonining xonadoniga kelganlarning hech birini duosiz kuzatmaydi. Mehmonlar ham bu ezgu tilaklarga hamohang duoga qo'l ochishadi.

Otabek ISROILOV ("Xalq so'zi").

**Mamlakatimizda Nurafshon - Piskent - Bo'ka - Bekobod - Boyovut - Yangiyer yo'nalishidagi yangi elektrlashtirilgan temir yo'l tarmog'i qurilishiga start berildi.**

**Xalq so'zi Narodnoe slovo**

**Bosh m'rhak'k'ik O't'k'ik QAHMATOV**

2020-yil 25-mayda O'zbekiston K'ys'prblikasi P'k'z'id'nti Admin'stratsiyasi hrz'k'idagi Axbokot va ommaviy komm'n'katsiyalak ag'y'ntligida 0001-qa'am bilan ko'yxatga olingan. Nash'k' ind'yksi - 229. Bry'rkt'ma G-542. 23 409 nr'sxada bosildi. Hajmi - 2 taboq. Ofs'y't r'srlida bosilgan. Qo'g'oz b'chimi A-2. Bahosi k'y'lishilgan narx'da.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

**T'LYFONLAK:**  
D'vyonxona 71-259-74-51; ko'tibiyat 71-259-74-53; y'lonlak 71-259-74-55.

Tahsijsiyatga k'yilgan qo'lyozmalar, taq'siz qilinmaydi va urallifga qayta'takilmaydi.  
Gaz'ytaning y'z'tak'iz b'y'k'ish'i r'chn obr'mani kas'miyatlashtirgan tashk'ilot javob'ga.  
Gaz'yt'a tahsijsiyat kompaniyas' maxkazida t'y'g'ildi hamda o'p'y'k'otok A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gaz'ytaning pol'igraf'ik jihatdan sifati chop t'y'lishiga "Sharq" nashriyot-mat'baa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona t'y'lfoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
100066,  
Toshk'ynt shah'ki,  
Islom Kakimov ko'chasi, 55-ry.  
Navbatchi m'rhak'k'ik F. Bozokov.  
M'sah'hib S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-mat'baa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonadan manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 20.30 Topshirildi - 23.40 **1 2 3 4 5 6**